

STATISTIKA VA RAQAMLI IQTISODIYIT

Qo'ldosheva Dilbar G'ofurjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Statistika yonalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda statistika va raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari, statistik ma'lumotlarning yig'ilishi, qayta ishlanishi va tahlil qilinishi jarayonlari yoritilgan. Shu bilan birga, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi o'quv-uslubiy materiallari asosida raqamli iqtisodiyotning samaradorligi, elektron xizmatlar va axborot tizimlarining statistik jarayonlarga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqola talabalarga va ilmiy izlanishlar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: statistika, raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari, elektron xizmatlar, ma'lumotlarni qayta ishlash, raqamlashtirish.

Bugungi globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni o'zgartirmoqda. Davlat va biznes sektori samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini baholash statistika orqali amalga oshadi.

Statistika fanining vazifasi — hodisalarni raqamlar orqali o'rganish, ularning qonuniyatlarini aniqlash va tahliliy xulosalar berishdir. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi o'quv-uslubiy materiallariga ko'ra, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida statistika tezkor va aniq ma'lumot manbai sifatida xizmat qiladi.

Statistika — jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni miqdoriy jihatdan o'rganadigan fan. Abdurahmonov Q.X.ning ta'kidlashicha, statistik tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- statistik kuzatuv va ma'lumotlarni yig'ish;
- yig'ilgan ma'lumotlarni guruhlash va umumlashtirish;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish;
- boshqaruv qarorlari uchun axborot bazasini shakllantirish.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi o'quv-uslubiy materiallarida qayd etilishicha, statistika nafaqat iqtisodiy jarayonlarni baholash, balki elektron platformalar orqali real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi. Bu esa qaror qabul qilish tezligi va sifatini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot — bu axborot va raqamli texnologiyalarni iqtisodiy jarayonlarda qo'llashga asoslangan tizimdir. Vazirlik o'quv-uslubiy materiallarida raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar keltiriladi:



Axborot resurs sifatida: iqtisodiy jarayonlarda ma'lumotlar asosiy resursga aylanadi;
Avtomatlashtirish: ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari raqamlashtiriladi;
Elektron xizmatlar: davlat va xususiy sektor xizmatlarining ko'pligi;
Tezkor tahlil va prognozlash: ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash;
Raqamli platformalar: iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish vositasi.

Shu jihatlar statistika fanining zamonaviy vazifalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, har ikki soha bir-birini to'ldiradi.

Statistik ma'lumotlar raqamli iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Vazirlik materiallarida keltirilishicha, u iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash, tarmoqlar va hududlar rivojlanish darajasini aniqlash, bandlik va daromad tahlili, innovatsion faoliyat samaradorligini o'lchash, raqamli xizmatlar va platformalarning samaradorligini monitoring qilish, jarayonlari orqali amalga oshiriladi

Elektron hisobotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ma'lumotlarni tezkor va aniqlik bilan qayta ishlash imkonini beradi, bu esa statistik tahlilning sifatini oshiradi.

Statistik kuzatuv — bu iqtisodiy hodisalar va jarayonlar bo'yicha ma'lumot yig'ish jarayoni. Abdurahmonov Q.X. va vazirlik o'quv-uslubiy materiallariga ko'ra, kuzatuv quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Davlat statistik hisobotlari – barcha iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi;
2. Maxsus tadqiqotlar – muayyan masalalarni chuqur tahlil qilish;
3. Ro'yxatga olish va so'rovlar – demografik va iqtisodiy jarayonlarni aniqlash.



Raqamli iqtisodiyot sharoitida kuzatuvlar elektron platformalarda amalga oshiriladi. Bu jarayonda: xatoliklar kamayadi, ma'lumotlar tezkor qayta ishlanadi, real vaqt rejimida monitoring qilish mumkin. Bu holat statistika va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashgan tizim sifatida namoyon qiladi.

Statistik tahlil — yig'ilgan ma'lumotlarni ilmiy usulda qayta ishlash va xulosa chiqarish jarayoni. Vazirlik materiallariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida statistik tahlil, iqtisodiy holat va rivojlanish sur'atlarini baholash, muammolar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, prognozlar va strategik qarorlar tayyorlash, hududlar kesimida samaradorlik tahlili kabi afzalliklarni o'z ichiga oladi.

Raqamli vositalar yordamida tahlil real vaqt rejimida amalga oshiriladi va boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Statistika va raqamli iqtisodiyot bir-birini mustahkamlovchi sohalardir. Statistik materiallarida qayd etilganidek: statistika ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi, raqamli texnologiyalar statistika jarayonlarini tezlashtiradi, ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash samaradorligi oshadi, davlat va biznes boshqaruvi uchun asos yaratadi.

Shu sababli zamonaviy mutaxassislar statistika bilimlari va raqamli texnologiyalar ko'nikmalarini birlashtirishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, statistika va raqamli iqtisodiyot o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy iqtisodiy tizimning samaradorligini oshiradi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi o'quv-uslubiy materiallari asosida raqamli iqtisodiyotning statistika bilan uyg'unligi aniq ko'rinadi. Shu bilan birga, elektron platformalar va axborot tizimlari statistik tahlil jarayonlarini tezlashtirib, boshqaruv qarorlarini asoslashni soddalashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Q.X. Statistika. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi. Statistika fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent.
3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. Raqamli iqtisodiyot va axborot tizimlari bo'yicha o'quv-uslubiy materiallar. Toshkent.